

**SHAHARLARNI KO‘KALAMZORLASHTIRISHDA QAYRAG‘OCH (*Ulmus*)  
DARAXTI AHAMIYATI VA KO‘PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI**

<sup>1</sup>N.B.Kamalova, <sup>2</sup>S.M.Urazbaeva

<sup>1</sup>Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

<sup>2</sup>Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Annotatsiya:** Bu maqolada ko‘kalamzorlashtirishda ahamiyatli sada qayrag‘och daraxtini dendrologik xususiyati, o‘shish sharoiti, manzaraviyligi va ko‘paytirish agrotexnikasi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘kalamzorlashtirish, ko‘paytirish, sada qayrag‘och, yog‘och sifati, shox-shabbasi tuzilishi, yashash davomiyligi, gullashi, urug‘i.

O‘zbekistonning shahar va qishloqlarida bog‘larni, hiobonlarni barpo etish masalalarini eshishda uning tabiiy va geografik sharoitlarini e‘tiborga olish kerak. Chunki har bir hududning sharoitlari har hildir (ular cho‘l mintaqalardan, chala sho‘r va qurg‘oqchilikdan iboratdir). Bu esa ko‘kalamzorlashtiruvchilardan ekiladigan o‘simlik turlarini bilishni talab qiladi. Chunki ular har bir hududlarda o‘shishi yoki o‘smasligi mumkin [2].

Bugungi kunda respublikamizning shahar va tuman markazlari hududlarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishkandan so‘ng mamlakatimizning aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, xalq salomatligini mustaxkamlash, yurt tinchligini saqlash ishlariga katta e‘tibor bilan qarab kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi turar joylarini, sanoat korxonalarini, sport inshootlarini va o‘quv maskanlari atrofini ko‘kalamzorlashtirishda manzarali daraxt va buta turlarini tug‘ri tanlash, ularni biologiyasini urganish katta ahamiyatga egadir [3].

**Sada qayrag‘och (*Ulmus densa*)** daraxti ilmiy o‘rganishda shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, bu daraxt uzining yorug‘ sevarligi va tez o‘svuchanligi bilan ajralib turadi, tuproq tanlamaydi, sho‘rlanishga moyil erlarda ham o‘saveradi, qurg‘oqchilikka chidamli tur xisoblanadi. Bu daraxt po‘stlog‘i qora rangli va chuqur yorilgan. Simpodial tipda shoxlanadi. Barglari qalin cho‘zinchoq, tuxumsimon, cheti ikki qator tishchali. Ular oddiy tuzilgan bo‘lib, kuzda to‘kilib ketadi. Bular barg yozishdan oldin gullaydi, shamol vositasida changlanadi. Mevasi may yoki iyun oyining boshlarida etiladi. U yassi yong‘oqcha bo‘lib, pardasimon qanotchasi bor. Urug‘i yassi, endospermasiz, unib chiqish xususiyatini tez yo‘qotadi. Ildizi o‘q ildiz bo‘lib, dastlabki vaqtlarda yaxshi rivojlanmay, so‘ng rivojlanib, erga juda chuqur kiradi va baquvvat

ildiz sistemasi hosil qiladi. Bular to'nkasidan yaxshi ko'karadi. Yog'ochi o'zakli, qattiq, pishiq, egiluvchan bo'lib, yaxshi yorilmaydi. Ushbu qayrag'och turi eng manzarali qayrag'och turlaridan biri hisoblanadi, uzoq o'tmishdayoq bu tur ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida shahar va qishloqlarga ko'plab ekilgan [1].

Biz Nukus o'rmon xo'jaligi ko'chatzorida olib borilgan tajribalarimizdan kelib chiqqan holda ekilgan 5000 dona Sada qayrag'och (*Ulmus densa*) daraxti ko'chatlarining yashovchanlik xolatining 80 foizining saqlanib qolishi va bu erlarning naqulay iqlim sharoitida ko'paytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'klamdagi urug' sepishda bir yil avval yoki qishda tayyorlangan urug'lar nam egatlarga sepiladi. Urug'lari keng qatorli (12-15 sm) qilib ekiladi va egatlarning o'rtasiga urug' sepiladi. Urug'larni ekish chuqurligi 2-3 sm ni tashkil qiladi. Urug' sepish me'yori gektariga 80-120 kg bo'lishi lozim [5]. Urug' sepish me'yori asosan, urug'ning sifat klassiga, ularning massasiga va sepish sxemasiga bog'liqdir. Ularni tuproqqa qanchalik chuqur (yoki yuza) sepish asosan, ularning hajmlari, mintaqaning iqlim sharoiti, tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari, sepish muddati va ko'chatlarni o'stirish agrotexnikasiga bog'liqdir. Birinchi yili ko'chatlarning o'sishi 50-60 sm gacha tashkil qiladi. Urug'larning unib chiqishi va urug'ko'chatlarning yaxshi o'sib rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida ishlov berib, parvarishning turlicha usullari qo'llaniladi. Urug'larning unib chiqqunga qadar parvarishlash ishlari bosib tekislash, mul'chalash, sug'orish, tuproqni yumshatish va begona utlarni yo'qatishni o'z ichiga oladi. Tuproqning yuza qismidagi namlikni saqlash, unda qatqaloq hosil bo'lishi oldini olish, tuproq namligini va haroratini bir maromda ushlab turish maqsadida ekilgan urug'lar mul'chalanadi. Mul'cha sifatida torfli qipiq, kompost, chirindi, yog'osh qipig'i 1-1,5 sm, somon, qamish 5-8 sm qalinlikda qo'llaniladi. Nihollar unib chiqishi bilan ularni quyosh nurining to'g'ri tushish ta'siridan himoya qilish, me'yordagi yorug'lik bilan ta'minlashni hisobga olgan holda mul'cha somon yoki qamishli qoplamning bir qismi olib tashlanadi. Tuproqning yuza qismini yumshatish va yovvoyi o'simliklarni chopish natijasida tuproqning yuza qismida urug'ko'chatning yuza tarmoqlangan ildiz sistemasi shakllanishi uchun engil o'zlashtira oladigan oziqa modda miqdori to'planadi. Urug'lar qiyg'os unib chiqishida sug'orish katta ahamiyatga ega. Tuproq va urug'lar yuvilib ketmasligi uchun bir maromda sug'oriladi. Sada qayrag'och 8-10 yoshida hosilga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining sug'oriladigan erlarida yaxshi usib rivojlanadi. 20-25 yoshida ishlatishga yaroqli yog'ochlar olish mumkin. Yog'ochi sifatli, mustaxkam, qattiq, oson quriydi. Shox-shabbasi qalin, keng, sharsimon. Shox-shabbalari zgiluvchan shakli uncha katta bo'lmagan 8-10 m balandlikdagi daraxt. Yaxshi sharoitda 300 va undan ko'p yil yashash mumkin.

O‘tkazilgan kuzatuvlar asosida Sada qayrag‘och (*Ulmus densa Litw*) daraxti Qoraqalpog‘istonning cho‘l mintaqalarida, sho‘r tuproqlarda o‘stirish o‘chun tavsiya qilinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhang Q. Y. et al. The diversification of the northern temperate woody flora—A case study of the Elm family (Ulmaceae) based on phylogenomic and paleobotanical evidence //Journal of Systematics and Evolution. – 2022. – T. 60. – №. 4. – С. 728-746.
2. Baltaniyazov J., Madraimov R. Orol dengizi qurigan tubida yashil qoplamalarni parvarishlash agrotexnikasi // Евразийский журнал академических исследований. - 2023. - Т. 3. - №. 10. - S. 156-158.
3. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. - 2017. - S. 820-821.
4. Qayumov A., Boltaniyozov J.S. Dust-Holding Properties Of Wood And Shrub Species In The Conditions Of The Republic Of Karakalpakstan // The American Journal of Applied sciences. - 2020. - Т. 2. - №. 09. - S. 170-174.
5. Kurbaniyazov B. T. Analysis of the state of woody plants in the city of Nukus (streets of ernazar alakoz) //American Journal of Plant Sciences. – 2020. – Т. 11. – №. 6. – С. 896-902.

